

in programs of the directions "Economics", "State audit", "Finance and credit" / [IA Maiburov and others]; under. ed. I.A. Maiburova, Yu.B. Ivanova. - M.: UNITY-DANA, 263 p.

4. Rustamovich, A.D., and A.O. Kalandarovich. "System of forms and methods of tax administration in Uzbekistan." *International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering* 9.1 (2019): 3108-3110.

5. <https://siu.ranepa.ru/nauka>

6. Compiled by the author based on data from the Tax Administrations of these countries

MINTAQA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARI KO'RSATKICHLARINI ISTIQBOLDA RIVOJLANTIRISHNING EKONOMETRIK MODELI

Sattarov Umirzoq Normengovich

QarDU doktoranti

Mintaqa infratuzilma tarmoqlari, xususan, xizmat ko'rsatish sohalari murakkab jarayon hisoblanadi. Mazkur soha tarmoqlarining tegishli ko'rsatkichlarini prognozlashga doir iqtisodiy-matematik usullardan foydalanilgan holda oldindan chamalab ko'rishni taqozo etadi. Buning uchun har qanday ijtimoiy hodisa, jarayon yoki obyekt murakkab tizim deb qaralib, uni ifodalovchi qonuniyatlarning miqdoriy va sifat tomonlari o'rganiladi. Murakkab iqtisodiy jarayon sifatida qaraladigan ijtimoiy sohaga ham bunday yondashish uning faoliyatini tahlil qilishda va ekonometrik modellashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Ekonometrik modellashtirish masalalari o'rganilayotgan sohani anglab yetish bilan cheklanib qolmay, balki, o'rganish jarayonida to'plangan bilimni bozor iqtisodiyoti amaliyotida qo'llash, qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun unga ijobiy ta'sir o'tkazish tajribasini egallashni ham ko'zda tutadi.

Aholi turmush darajasini oshirish ijtimoiy sohalarni rivojlantirish jarayonlari bir-biri bilan uzviy ravishda bog'langanligini qaraydigan bo'lsak, ular o'rtasida muayyan aloqadorlik mavjud bo'lib, birining rivojlanishi, albatta, ikkinchisining ham o'zgarishiga omil bo'ladi. Ya'ni ijtimoiy sohalarning rivojlanishi, aholi turmush darajasining oshishiga olib keladi. Aholi turmush sharoiti faoliyatini rivojlantirish, ijtimoiy sohaning rivojlanishi, aholiga xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishiga bog'liq. Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishida transport xizmati, aloqa xizmati, servis xizmati, kommunal xizmat ko'rsatish kabi sohalari muhim rol o'ynaydi. Bu sohalarning rivojlanishini aholi daromadiga, yalpi ichki mahsulotning oshishiga bog'liqliki, o'z navbatida, ichki mahsulotni oshirish ishlab chiqarish jarayoniga bog'liq. Mana shu o'zaro bog'liqliklarning birortasi buzilsa, ishlab chiqarish jarayoni ham buziladi. Bu esa mehnat unumdorligining pasayishiga, moddiy manfaatdorlikning so'nishiga, natijada aholi turmush sharoitining pasayishiga olib keladi. Shuning uchun ham ijtimoiy hodisalarni o'rganishda belgilar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy hodisalarda ta'sir etuvchi omillarga bir xil emas, balki har xil qiymatlarning mos kelishini, ularning o'zaro bog'liqligini korrelyatsion bog'lanishini o'rganish maqsadga muvofiq keladi. Chunki ijtimoiy sohalarning

xarakterli xususiyati shundan iboratki, bu sohaga ta'sir qiluvchi barcha omillarning to'liq ro'yxatini (kuchini) aniqlash mumkin emas. Bundan tashqari, formula yordamida bog'lanishlarning faqat taxminiy ifodalarini yozish mumkin, xolos. Chunki aholi turmush sharoitiga ta'sir etuvchi omillarning soni juda ko'p bo'lib, ularning to'liq ro'yxatini aniqlash va ta'sir etuvchi natijaviy belgi bilan bog'lanishini to'la ifodalaydigan tenglamani yozish mumkin emas.

Aholi turmush sharoitini rivojlantirish shunday to'liqsiz bog'lanishki, unda omillarning har bir qiymatiga turli zamon va makonda ta'sir etuvchi omil natijalarining har xil qiymatlari mos keladi. Demak, ta'sir etuvchi omillarning to'liq soni noma'lum bo'ladi. Bunday bog'liqlikni korrelyatsion bog'lanishlar orqali o'rganish maqsadga muvofiq keladi.

Bizning vazifamiz aholining turmush sharoitiga ta'sir qiluvchi kuchli va kuchsiz bog'lanishlar mavjudligini baholashdan iborat. Bu vazifani bajarish uchun korrelyatsion tahlil usulidan foydalanamiz. Chunki maqsadimiz aholi turmush sharoitiga ta'sir qiluvchi bog'liqliklarning muhimligini, ishonchliligini baholash. Korrelyatsion tahlil orqali aholi turmush darajasiga ta'sir etuvchi bog'liqlik meyorini o'lchaymiz, lekin munosabatlarning sababini aniqlay olmaymiz.

Aholi turmush sharoitini oshirishda ijtimoiy rivojlanishdagi korrelyatsion bog'lanishni tekshirishda bir omil yoki jarayonning o'zgarishiga qarab, ikkinchi jarayon qancha miqdorda o'zgarishini aniqlash uchun korrelyatsion tahlil orqali bog'lanish zichlik darajasini baholaymiz. Va natijaviy belgiga ta'sir etuvchi omillarning samaradorligini aniqlash maqsadida regression tahlildan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki aholining turmush sharoitini rivojlantirish samaradorligini aniqlash uchun turmush sharoitiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash lozim. Bunda korrelyatsion-regression tahlildan foydalaniladi. Chunki korrelyatsion-regression tahlil yordamida aholi turmush darajasini kelajak davrlar uchun istiqbol miqdorlarini baholanadi va ularning ehtimol chegaralarini aniqlashda yordam beradi.

Jarayonlarining ekonometrik modellariga ega bo'lish uchun Microsoft Excel elektron jadval bo'yicha shaxsiy kompyuterlarda bir necha variantlar hisob-kitob qilindi va tegishli natijalar olindi.

Viloyat aholisiga maishiy xizmat ko'rsatish sharoitiga ta'sir qiluvchi kuchli va kuchsiz bog'lanishlar mavjudligini baholash maqsadida quyidagi regression tenglama hosil bo'ldi:

$$Y_Mx = 1231,38 - 0,029X_1 + 0,119X_2 - 77,85X_3 + 0,128X_4 - 0,1X_5 - 0,2X_6 \quad (1)$$

Bu tenglamadan ko'rinib turibdiki, bog'lanishlar asosiy 6 ta omildan iborat bo'lib, yiliga ijtimoiy iste'molning 1 mln. so'mga oshishi, maishiy xizmat ko'rsatishning 0,029 mln. so'mga kamayishiga, shaxsiy iste'molning yiliga 1 mln. so'mga oshishi maishiy xizmat ko'rsatishning 0.119 mln. so'mga oshishiga olib kelmoqda. Aholi jon boshiga pullik daromadi yiliga ming so'mga ohsa, umumiy maishiy xizmat ko'rsatish 77,85 ming so'mga kamayadi, kapital mablag'larning yiliga 1 mln. so'mga oshishi, maishiy xizmatning 0.128 mln. so'mga oshishiga olib keladi, pullik xizmatlar hajmi yiliga 1mln. so'mga oshishi, maishiy xizmat ko'rsatishni 0.1mln. so'mga kamayishiga, asosiy jamg'armalarni ishga tushirish

1mln. soʻmga oshishi esa, 0.2mln. soʻmga kamayishini koʻrsatmoqda.

Qashqadaryo viloyat aholisiga tibbiy xizmat koʻrsatish darajasini 4 ta asosiy omilga bogʻliq holda tahlil qildik. Natijada quyidagi regression tenglama hosil boʻldi:

$$YTx=8404,49+0,039X1-0,002X2+0,145X3-877,27X4 \quad (2)$$

Viloyat aholisiga kommunal xizmat koʻrsatish darajasini tahlil qilish uchun, asosan, 3 ta omilni hisobga olib, bogʻliqligini oʻrgandik va quyidagi regression tenglamani hosil qildik:

$$YKx=-29107,45+1,3X1-1,61X2+0,17X3 \quad (3)$$

Buning natijasida yiliga aholi daromadi 1mln. soʻmga oshishi, kommunal toʻlov 1,3 mln. soʻmga oshishiga, umumiy isteʼmolni 1mln. soʻmga oshishi kommunal toʻlovning 1,61mln. soʻmga kamayishiga, kapital mablagʻlarning 1mln. soʻmga oshishi esa, kommunal toʻlovning 0,17 mln. soʻmga oshishiga olib keladi.

Viloyat aholisiga yoʻlovchi tashish transport xizmat koʻrsatishga taʼsir etuvchi omillarni hisobga olgan holda regression tenglama tuzilgan.

$$YYt=-9057,83+0,012X1-0,049X2-0,001X3+0,128X4 \quad (4)$$

Aloqa xizmatiga asosiy taʼsir etuvchi omillar koʻrsatilgan:
aholi daromadlari-X1, umumiy isteʼmol-X2, kapital mablagʻlar-X3

$$Yax=-4103,5+0,21X1-0,24X2+0,018X3 \quad (5)$$

Biz yuqoridagi natijalardan kelib chiqib aholiga xizmat koʻrsatish sohasini rivojlantirishda oʻzaro bogʻliq omillarni oʻrgandik va ularning ekonometrik modellar koʻrinishida quyidagicha belgilab oldik:

Bu yerda: Ma- aholiga maishiy xizmat koʻrsatish, li – ijtimoiy isteʼmol, Si- shaxsiy isteʼmol, Ajd- aholi jon boshiga oʻrtacha oylik pul daromadi, Km- kapital mablagʻlar, Px- pullik xizmatlar hajmi, Ajd-asosiy jamgʻarmalarni ishga tushirish, Tx- tibbiy xizmat, Ks- kasalxonadagi oʻrinlar soni, Yt- yoʻlovchi tashish transport xizmati, Sm-sanoat mahsulotlari, Qxm- qishloq xoʻjaligi mahsulotlari, Km- kapital mablagʻlar, Ta-tovar aylanishi, Kx- turar-joy kommunal xizmati, Ad- aholi daromadi, Ui- umumiy isteʼmol, Ax- aloqa xizmati.

Ekonometrik modellardan eng sodda regression tenglamalar tuzilib 1-jadvalda keltirilgan. Taklif etilayotgan modellar iqtisodiy koʻrsatkichlari hududdagi iqtisodiy vaziyatni hisobga olgan holda rivojlanuvchi xizmat koʻrsatish sohasi tarmogʻi istiqbolini aks ettiradi. Iqtisodiy koʻrsatkichlarni rivojlantirish masalalarini hal qilishga doir mazkur modellar iqtisodiy, ijtimoiy va demografik jihatlarni hisobga olgan holda istiqbolli xizmat koʻrsatish sohalari va ularga tegishli meyorlarni aniqlab olishga yordam beradi.

Maʼlumki, maishiy xizmat koʻrsatish korxonalarini soni va sifati yildan-yilga oʻsib bormoqda. Bu korxonalarining soni, koʻlami va turi birinchi galda mahalliy

sharoitga, aholi soniga, tarkibi, zichligi va xarid qobiliyatiga migratsiya jarayonlarining tabiatiga, qishloqlar qurilishining tuzilishi va undagi transport tarmog'iga bog'liq bo'ladi.

Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish kelajakda yanada yaxshilanib boradi va ambulatoriya-poliklinika orqali tibbiy yordam berish ishlari, dorixonalar xizmati, kasalxonada o'rinlar bilan ta'minlanganlik darajasi, sog'liqni saqlash muassasalari zarur zamonaviy asbob uskuna va jihozlar bilan yanada yaxshiroq ta'minlanadigan bo'ladi. Turar-joy kommunal xo'jaligi sohasida ko'rsatiladigan xizmatlar yaxshilanib, turar-joy qurilish hajmi kengayadi, turar-joy binolarini qayta ta'mirlash va aholining turar-joy sharoitlari yaxshilanishiga olib keladi. Transport xizmat ko'rsatishida tumanlar ichida va tumanlararo transport qatnovlari yanada ko'payadi. Avtomobil transporti, temir yo'l va aviatsiya yordamida yo'lovchilar tashish ishlari yanada rivojlanadi.

Viloyat iqtisodiyotining rejalash-iqtisodiy qonunlar tizimining hudud bo'yicha ta'siri tufayli ro'y beradigan miqdor va sifat o'zgarishlarini o'rganish mahalliy manfaatdorlikni keltirishni, tuman hududlari rivojlanishini hisobga olib, viloyat iqtisodiyoti va ijtimoiy tizimining rivojlanib borish yo'llarini yanada aniqlab olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Aholining ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan xo'jalik faoliyatining majmuasi sifatida ijtimoiy sohaning hududga xos jihatlarini rejalash juda qiyin. Xizmat ko'rsatish sohaslarida, hususan, maishiy xizmat ko'rsatish, kommunal xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishidek murakkab jarayon viloyatdagi mazkur sohalar ko'rsatkichlarini rejalashga doir ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalangan holda oldindan chamalab ko'rishni taqozo etadi.

Xizmat ko'rsatish sohalari mexanizmini takomillashtirish, shahar bilan qishloq o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish bozor munosabatlarini hisobga olgan holda olib borilishi lozim. Qishloq sharoiti va aholining turmush darajasini rivojlantirishni optimal prognoz qilish, ratsional rejalash, monitoring va oqilona boshqarishga mos holda boshqaruvni modellashtirish kerak. Qishloq aholisiga xizmatlar ko'rsatish sohasining asosiy ko'rsatkichlarini, ular turlari orasidagi nomutanosiblikni aniqlash, xo'jalik yuritishning bozor mexanizmini takomillashtirish uchun, albatta, ekonometrik modellashtirishdan foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абалкин, Л.И. *Экономическая безопасность России: угрозы и их отражение* / Л.И. Абалкин // *Вопросы экономики*. – 2004. – № 12. – С. 4–13.
2. Абдикеев, Н.М. *Экономика, основанная на знаниях, и инновационное развитие* / Н.М. Абдикеев // *Вестник Финансового университета*. 2014. – № 5 (83). – С. 16–26.
3. Академик Аганбегян: *нужно переходить к новой экономической политике* // *Мир новой экономики*. – 2014. – № 4. – С. 6–12.
4. Батаева, Б.С. *Устойчивое развитие России: социальное качество роста* / Б.С. Батаева // *Экономические системы*. – 2013. – № 2. – С. 15–19.
5. Беляева, И.Ю. *Социальная активность современных компаний: аспект присутствия на территории* / И.Ю. Беляева, Н.П. Козлова // *Экономические системы*. – 2013. – № 2. – С. 52–55.